

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at” kafedrasini professori p.f.d. Bulatov Saidaxbor Sobitovich taqrizi ostida

Axmedov Muhammadumar Baxridinovich Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti “tasviriy san’at” Kafedrasini p.f.d. (phd), professor v.b. Telefon raqami: +998 90 936 83 46 Muhammadumar.ahmedov@inbox.ru

XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATINING YOSHLAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMITATI

Annotatsiya: Maqolada me’morlik hamda amaliy bezak san’ati va uning turlarining tarixiy rivojlanishi, kishilik jamiyatida tutgan o’rni, me’morlik obidalarini amaliy bezak san’atining u yoki bu turu bilan bezatilishi va ushbu san’at turlarini yoshlarga o’rgatish orqali ularning ijodiy komponentsiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch soʻzlar: Ramz, haykaltaroshlik, rangtasvir, me’moriy obida, yog‘och, ganch, xonaqoh, hunarmandchilik, shift, to‘sun, vassa, gumbaz, mehrob, monumental.

ЗНАЧЕНИЕ ФОЛЬКЛОРНО-ПРАКТИЧЕСКОГО ДЕКОРАТИВНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье рассматривается историческое развитие архитектуры и декоративно-прикладного искусства и его видов, их роль в человеческом обществе, украшение памятников архитектуры тем или иным видом декоративно-прикладного искусства, а также путем обучения этим видам искусства молодежи, их обсуждалось формирование творческих компонентов.

Ключевые слова: Символ, скульптура, живопись, памятник архитектуры, дерево, ганч, дом, ремесло, потолок, балка, васса, купол, михраб, монументальный.

THE IMPORTANCE OF FOLK-PRACTICAL DECORATIVE ART IN THE FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY OF YOUTH

Annotation: The article examines the historical development of architecture and decorative and applied art and its types, their role in human society, the decoration of architectural monuments with one or another type of decorative and applied art, as well as by teaching these types of art to young people, the formation of creative components was discussed.

Keywords: Symbol, sculpture, painting, architectural monument, wood, ganch, house, craft, ceiling, beam, vassa, dome, mihrab, monumental.

“Boy tariximiz durdonasi bo‘lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol etkazishimiz zarur.”¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. -T.: Tasvir, 2021, -16 b.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devoru toshlarga ov jarayonlari, jangu jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Rang-barang o‘simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o‘zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustuvordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o‘z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o‘rganib, uylarni ajoyib naqsh-nigorlar bilan boyitganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san‘ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo‘yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san‘ati tilini bilish uchun naqshning har bir elementlari va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo‘lgan. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzot, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar hayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go‘zallik bilan yaqin do‘st, birodar bo‘lishga undaganlar.²

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach san‘at va madaniyatda ham katta burilish sodir bo‘ldi. San‘at o‘z taraqqiyot yo‘liga chiqib oldi. San‘at yo‘nalishini rivojlantirish yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qilindi. O‘zbek milliy amaliy san‘ati jahonga olib chiqildi.

Amaliy san‘at — badiiy bezak san‘ati, san‘atning teatr, kino musiqa, tasviriy san‘at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o‘z nomiga ko‘ra amaliyotda, ya‘ni turmushda qo‘llaniladigan bezak san‘ati ma‘nosini anglatadi. Amaliy-badiiy bezak san‘ati turli xil buyumlar, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, ishlab chiqarish korxonalarini, o‘quv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog‘liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o‘z ichiga oladi. Amaliy bezak san‘ati kishilar turmushida shunchalik keng qo‘llaniladiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.³

Amaliy san‘at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san‘atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalq amaliy san‘atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me‘morlik, raqs va musiqa bilan hamohangdir.

Xalq amaliy san‘atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo‘llanib kelingan badiiy an‘analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko‘proq har bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, amaliy san‘at ustasi o‘z asarini yaratayotganda u go‘zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi.

O‘zbekistonda amaliy san‘atning eng sevimli qadimiy turlaridan biri ganchkorlikdir. Amaliy san‘atning bu turida Buxorolik va Toshkentlik ustalar samarali mehnat qilmoqdalar.

² Bo‘latov S.S., Tolipov N.X. Go‘zallik falsafasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008, -5-7 b.

³ Qo‘ziyeva Z.E. Xalq amaliy san‘ati. -Navoiy.: 2012, -3 b.



Ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan bino intereri.

Avvallari devorlar o‘yma gulli pannolar bilan bezatilar taxmonlar qirrasiga naqshlar o‘yilardi. Tokchalar bo‘lsa o‘ymakor yoki jimjimador bezaklar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qilib, unga ganch va yog‘ochdan panjara o‘rnatilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me‘morchilik detallari ganchdan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari va ma‘muriyat binolarining ichki va tashqi qismini bezatishda ganchkorlikdan keng foydalanmoqda. O‘zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidagi Sitorai Mohi Xosadagi “Oq uy” da, Toshkentdagi Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida ko‘rish mumkin. San’atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta Shirin Murodov (Buxoro), Toshpo‘lot Arslonqulov, A.Po‘latov, A.Samadov, M.Usmonov (Toshkent), H.Jalilovlar (Samarqand) dong taratganlar.

Amaliy san’atning yog‘och o‘ymakorligi turi O‘zbekistonda qadimdan mavjud

bo‘lib, o‘zining boy an’analariga ega. Yog‘och o‘ymakorligi asarlari eshik, deraza, qutichalar, qantdon, ustunlar, panjaralar o‘yinchoqlarda o‘z aksini topgan. Bu borada Xiva ustalarining (Ota Polvonov) ishlari maqtovgga loyiqdir. U ishlagan asarlar o‘simliksimon elementlarning ko‘pligi bo‘rttirib ishlanganligi bilan boshqalarning asarlaridan ajralib turadi.



Yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan olti raxli kursi va shirma.

Toshkent ustalari (S.Xo‘jayev, M.Qosimov, O.Fayzullayev) esa ko‘proq “guruh” usulida ishlab, geometrik naqshlardan foydalanishadi. Qo‘qonlik usta Haydar Najmiddinov, uning o‘g‘li Qodirjon Haydarov hamda usta Bahridin Ahmedovlarning ishlari ham diqqatga sazavordir. Yog‘och o‘ymakorligi san‘atida musiqa asboblari bezash alohida o‘rin egallaydi. Dutor va tanburga, chang va torlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Bu san‘at hozirgi vaqtda Toshkentda keng rivojlanmoqda.

Qadimdan uy-ro‘zg‘or buyumlariga buyoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Uni naqqoshlik san‘ati deb yuritiladi. Respublikamizda amaliy san‘atning bu turi qadimdan rivojlangan bo‘lib, unda o‘zbek ustalari faqat uy-ro‘zg‘or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini ham bezaydilar. San‘atning bu turida har bir xalq o‘zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san‘atida tekis yog‘och yuzasiga usta o‘simliksimon naqsh rasmini tushiradi, unga maxsus buyoqlar beradi. U biroz qurigandan so‘ng buyog‘i o‘chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lak surtiladi.

O‘zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoqdir. Bu ustalar eskiz bo‘yicha duradgor ishlagan yog‘ochga yelim surtadilar, uning usti jilvir qog‘oz bilan ishqalangandan so‘ng, materialga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsion tasvir, uning ustiga qora buyoq surtib, so‘ngra naqsh ishlanadi. Naqshlarning o‘chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi.

Naqqoshlik xalq amaliy san‘atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan

biridir. Naqqoshlik san‘atining gurkirib rivojlanishi bevosita O‘rta Osiyoda islom dinini bevosita kirib kelishi bilan bog‘liqdir. Chunki islom dini tirik mavjudodni tasvirlashni taqiqlab qo‘yadi. VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiiy hunarmandchilik keng-ko‘lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san‘ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko‘tarildi. Masalan, shu davrlarda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan bo‘lsa, XI-XII asrlardan esa nash yozuvi me‘morlikda keng-ko‘lamda ishlatila boshlandi. Naqqoshlikda o‘simliksimon, geometrik, har xil arab yozuvli naqshlar va boshqa turdagi ishlar paydo bo‘ladi.

Badiiy, hunarmandchilikda, milliy san‘atimizda “naqqoshlik” alohida ahamiyatga ega. Uni xalq amaliy san‘atining barcha turida uchratasiz. “Naqqoshlik” san‘ati qadimiy va o‘lmas san‘atdir. Naqqoshlik san‘atining qadamiyligiga diyorumiz xududidagi me‘moriy obidalardagi devoriy rasm va naqshinkor bezaklar dalildir. Milliy me‘morlikda naqsh san‘ati asosan ustunlari shiftlarni, to‘sun va vassalarni, bino devorlarini, gumbaz va mehroblarni bezatishda qo‘llanilgan. Naqqoshlik san‘atiga qanchalik to‘sqinlar bo‘lmasin O‘zbekiston me‘morligida muhim o‘rin tutib kelganva kelmoqda.

Naqqoshlik amaliy san‘at turlaridan biri bo‘lib, tabiat manzarasini ma‘lum unsurlar vositasida o‘ziga xos yo‘sinda ifodalovchi bir rangli tasvirki, bu tasvirda unsurlarning ma‘lum bir satxda o‘zaro uyg‘unligi kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Naqshu nigorlar, naqshlangan uy jihozlarida, uy-joy ro‘zg‘or ashyolarida, devor va ishlangan keng xajmdagi bezaklarda va asbob anjomlarda takrorlanib keladi. Naqqoshlar murakkab naqshlarda o‘zlarining eng yaxshi tilaklarini aks ettiradilar. Naqqoshlik kishida yuksak badiiy didni yuzaga keltiradi. Naqsh ishlangan, me‘morlik obidalari, turarjoy binolari kishiga zavq bag‘ishlash bilan birga ruhlanish manbai bo‘lib kelgan.



Naqqoshlik san'ati.

Aytishlaricha go'zal naqshlangan uylarda yashab kelgan kishilar, ruxiy osoyishta yashab, uzoq umr ko'rgan ekanlar. Shuning uchun ham bu madaniy me'rosimizni davom ettirib kelajak avlodga o'rgatib singdirib borish, yangi-yangi imkoniyatlarni topib uni boyitib borish katta ahamiyatga egadir. Naqqosh O.Qosimjonov, Yo.Raupov, T.To'xtaxo'jayev, J.Hakimov, M.To'rayev, A.Illhomov (Toshkent), A.Boltayev (Xiva), S.Maxmudov, S.Norqo'ziyev (Qo'qon) va boshqa ustalar san'atning bu turida mehnat qilib, shuhrat qozonganlar.⁴

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirg'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda "qizil ko'lanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. Hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishda ayblab faoliyatlari to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaeov, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Haydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'yidilar. Keyinchalik esa o'z uslubi va yo'nalishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo'qon kabi yirik yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo bo'ldi. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topib bordi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at va san'atkorlar hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol topdirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi. Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor

⁴ Qo'ziyeva Z.E. Xalq amaliy san'ati.-Navoiy.: -2012, -5-14 b.

bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog‘och o‘ymakorligini tez sur‘atlar bilan o‘zib borishiga imkon yaratib berdi. O‘ymakor ustalar bulardan tashqari uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda ham o‘z san‘atlarini mohirona namoyish etishdi. Monumental me‘morchilikda yog‘och o‘ymakorligi ana‘naviy san‘at turiga aylanib bordi. Kishini hayratga soluvchi va o‘ta nafis, tabiiy qilib ishlangan yog‘och o‘ymakorligi namunasi XII asrga tegishli bo‘lib, u Samarqanddagi Shohi Zinda devori orasidan topilganligini so‘zimiz isboti sifatida aytib o‘tishimiz mumkin. Shohi Zinda ansanbli Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat. Shohi Zinda — Tirik shoh ma‘nosini anglatib, mazkur ansambl xalq orasida juda mashhur. Qusam ibn Abbos maqbarasi Shohi Zinda ansanbli tarhiga kiruvchi eng qadimiy binolardan biri bo‘lib, XI asrda bunyod etilgan. Shu davrda mazkur maqbara yonida masjid, minora, Tamg‘och Bug‘roxon madrasasi, Ziyoratxona va uning tagida chillaxona qad rostlagan.



Shohi Zinda ansanbli (XII-asr).

Ansambl bir–biri bilan yo‘lak orqali bog‘langan uch guruh binolardan iborat:

I. Quyi guruhdagi binolar: Ulug‘bek o‘g‘li nomidan qurdirgan Abdulaziz chordog‘i, unga shimoldan Davlat Qushbegi madrasasi tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshinkor qilib nafis bezaklar bilan bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o‘rtalig‘ining chap tomonidan ziyoratxona va qabristondan iborat qo‘shgumbazli maqbara joylashgan.

II. O‘rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug‘li Tekin maqbarasi, Shirinbeka oqo maqbarasi, uning qarshisidagi Amir Temurning boshqa singlisi Turkon oqo maqbarasi, Sakkiz qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabi masjid va madrasalar mavjud.

III. Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xo‘ja Ahmad maqbarasi, Tuman oqo kompleksi, yana 2 ta nomsiz maqbaraning kiraverish devorigina saqlanib qolgan xolos. Bundan tashqari Tamg‘och Bug‘roxon madrasasi, Amir Burunduq maqbarasi va boshqa masjid, madrasa, xonaqohlar kiradi.

Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asr boshlarida ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. XVIII asrda vayron bo‘lgan zina o‘rnida keyinchalik 40 pog‘onali g‘ishtin yangi zina qurilgan.



Registon majmuasi (XVII-asr).

XVI asrning oxiriga kelib Samarqandda o‘ziga xos me‘morchilik uslubi shakllandi. Oqsaroy, Ko‘k Gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Saidon, Xazrat imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor ut-tilovat, Dorus-siyosat va boshqa shular singari me‘morchilik yodgorliklari o‘zining monumentalligi, jozibardorligi, naqqoshlik va o‘ymakorlik san‘atining o‘ziga xosligi bilan hamon diqqatga sazovardir. Samarqandda bunyod etilgan Tillakori, Sherdor va Ulug‘bek madrasalaridan tashkil topgan Registon majmuasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Samarqand hokimi vatanparvar, fidoiy inson — Yalangto‘sh Bahodir registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdiradi. Ular O‘rta Osiyo me‘morchilik san‘atining klassik namunasi bo‘lib qoldi. “Yalangto‘shbiy Bahodir Saidqul o‘g‘li Yalangto‘shbiy, Yalangto‘shbiy otaliq Ashtarxoniylar davridagi harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili Olchin qabilasidan. Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. 1626 yildan Samarqand hokimi, shu yili unga otalik unvoni beriladi. Yalangto‘sh Baxodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e‘tibor bergan. Jumladan, Samarqanddagi Sherdor madrasasi (1619-1636), Tillakori masjid-madrasalari (1646-1660), Maxdumquli A‘zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni qurdirgan”. 1619 yili Sherdor madrasasini Yalangto‘sh Bahodir qurdiradi. “Yalangto‘sh qudratining ramzi madrasa ravog‘ida qarab turgan ikki quyosh tagida ohulara hamla qilayotgan sherlar timsolida ifoda etilgan. Madrasa Samarqandlik me‘mor Abdujabbor loyihasi bo‘yicha 17 yil daiomida qurilgan, uni me‘moriy bezak ustasi Muxammadabbos ziynatlagan.”

O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati ham san‘at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san‘ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlanib kelayotgan bu amaliy san‘at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, o‘yib, chizib, tirnab, bo‘yab ishlangan, takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam xis-tuyg‘ularini ifodasidir. Bamisoli yog‘och, suyak, qora loy, ganch va boshqalarga jo etilgan hayot qo‘shig‘idir. Hayot qo‘shig‘i esa zamonlardan-zamonlarga baralla yangrayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –T.: 2021
2. M.M.Qodirov, (2024). FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION OF PROFESSIONAL TEACHERS’ COMPETENCE OF FORMATION MECHANISMS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 5(02), 68–76. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-02-12>
3. Nishonbekovich, N. U. (2023). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF A FINE ARTS TEACHER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(03), 53-57.
4. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
5. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
6. Nazirbekova, S. (2021). THE IMPORTANCE OF FIELD PRACTICE IN FINE ARTS. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v4.35>
7. Абдусаломходжаев, Н. (2021). Исторические личности в творчестве малика набиева. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
8. Fayzullaevich, A. S. (2021). The use of the artistic traditions of uzbek folk art in the lessons of fine art. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 54-61.
9. Абдирасилов, С. (2021). Изобразительное искусство узбекистана в патриотическом и эстетическом воспитании школьников. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
10. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
11. Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
12. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
13. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
14. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // *European Journal of Arts*, 2023, №1. – С.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>

15. Дилшоджон Тураевич Хайтметов. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРАКТИКЕ ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА. *PEDAGOGS*, 51(1), 61–64. Retrieved from <http://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/718>

16. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2024). TALABALARNI “AMALIY BEZAK SAN’ATI” FANINI DASTURIY MAHSULOTLAR ORQALI O’QITISHNING DIDAKTIK VA METODIK TA’MINOTI: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at” kafedrası professori p.f.d. Bulatov Saidaxbor Sobitovich taqrizi ostida. *IQRO INDEXING*, 9(1), 195-201. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1744>